



ZAMONAVIY MAFKURAVIY XATARLAR VA GLOBALLASHUVNING TA'SIRI

Baratov Hamidullo

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tarix kafedrası o'qituvchisi

Jamolov Og'abek

Murodullayev Shuhrat

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoning mafkuraviy manzarasi va global miqyosda ro'y berayotgan g'oyaviy jarayonlar tahlil qilinadi. Muallif dunyo mamlakatlari va mintaqalarining mafkuraviy yo'nalishlari, ularning o'zaro manfaatlari, shuningdek, zamonaviy mafkuraviy xatarlarni ko'rsatib beradi. Tinchlik va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ilg'or mafkuralar bilan bir qatorda, globallashuvning mafkuraviy jarayonlarga bo'lgan ta'siri, terrorizm, neofashizm va irqchilik kabi tahdidlarning kuchayishi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: mafkuraviy manzara, g'oyaviy jarayonlar, global siyosat, umuminsoniy qadriyatlar, demokratik tamoyillar, globallashuv, terrorizm, milliy qadriyatlar, mafkuraviy xavf, ijtimoiy beqarorlik.

Abstract: This article examines the ideological landscape of the world and analyzes the ideological processes occurring on a global scale. The author explores the ideological orientations of various countries and regions, their mutual interests, and contemporary ideological threats. Alongside advanced ideologies based on peace and universal values, the



influence of globalization on ideological processes, as well as the rise of threats such as terrorism, neo-fascism, and racism, are highlighted.

Key words: ideological landscape, ideological processes, global politics, universal values, democratic principles, globalization, terrorism, national values, ideological threats, social instability.

Аннотация: В данной статье рассматривается идеологический ландшафт мира и анализируются идеологические процессы в глобальном масштабе. Автор исследует идеологические ориентации различных стран и регионов, их взаимные интересы, а также современные идеологические угрозы. Наряду с передовыми идеологиями, основанными на мире и общечеловеческих ценностях, подчеркивается влияние глобализации на идеологические процессы и рост таких угроз, как терроризм, неофашизм и расизм.

Ключевые слова: идеологический ландшафт, идеологические процессы, глобальная политика, общечеловеческие ценности, демократические принципы, глобализация, терроризм, национальные ценности, идеологические угрозы, социальная нестабильность.

Bugungi kunda dunyo mafkuraviy manzarasi tobora murakkablashib bormoqda. Turli davlatlar va mintaqalar o'zlarining tarixiy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy xususiyatlariga asoslangan mafkuralarni ilgari surmoqda. Bu jarayon global siyosiy o'zgarishlar, iqtisodiy raqobat, diniy va etnik qarama-qarshiliklar fonida amalga oshmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek: "Biz Yangi O'zbekistonni yetuk ma'naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz lozim. Faqat jismoniy jihatdan baquvvat insonni tarbiyalash unchalik qiyin emas. Ammo insonni ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan kamol toptirish go'yat murakkab vazifa. Ayniqsa bugungi kunda - mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan nozik, qaltis sharoitda, hozirgi tahlikali



zamonda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega”¹ O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasini yoritishda ma’naviyat va mafkuraning ahamiyati beqiyos. Jismoniy va ma’naviy jihatdan kamol topgan insonlarni tarbiyalash, global mafkuraviy jarayonlarga qarshi kurashish va jamiyatning barqarorligini ta’minlash bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi. Bu jarayonlar, ayniqsa, jahonning tez o‘zgarayotgan va tahlikali zamonida, muhim ahamiyatga ega.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi – bu global miqyosda ro‘y berayotgan g‘oyaviy jarayonlar, turli mafkura shakllari, ularning maqsad va mohiyatini yaxlit aks ettiruvchi tushunchadir. Bugungi kunda dunyo muayyan yaxlitlikni tashkil etayotgan bo‘lsa-da, mintaqalar va davlatlar o‘z tarixiy sharoiti, geografik joylashuvi va geostrategik ahamiyatiga ko‘ra turli mavqelarga ega. Mazkur davrni g‘oyaviy qarama-qarshiliklarning murakkablashuvi, mafkura poligonlarining kuchayib borishi bilan tavsiflash mumkin. Shu sababli, “Mafkuraviy ta’sir usullari har bir davlat va xalq uchun o‘z manfaatlarini himoya qilish vositasiga aylangan”²

Bugungi global siyosiy xaritada ko‘plab davlatlar mavjud bo‘lib, ularning ichida turli siyosiy kuchlar, partiyalar, diniy oqimlar va ijtimoiy qatlamlar faoliyat olib bormoqda. Bu guruhlar bir-biridan farqli, ba’zan qarama-qarshi manfaatlarini ko‘zlaydi. Aynan mana shu manfaatlar sababli “Turli mintaqalardagi xalqlar ongiga ta’sir ko‘rsatish, ularni iqtisodiy va siyosiy jihatdan bo‘ysundirish uchun turli g‘oyaviy vositalar qo‘llaniladi”³. Ba’zan bunday ta’sir tinch yo‘llar bilan amalga oshirilmasa, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashish, zo‘ravonlik va ijtimoiy beqarorlikni yuzaga keltirish urinishlari ko‘zga tashlanadi.

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida ilg‘or davlatlar ko‘pincha umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslangan mafkuralarni ilgari surmoqda. Bu mafkuralar tinchlik va taraqqiyot, inson huquqlari va jamiyat farovonligiga xizmat qiladi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. - 464 б. 274-bet

² Aliyev R. Zamonaviy dunyo mafkuraviy qarama-qarshiliklar girdobida. Toshkent:”Fan va texnologiya”. 2020.54-bet.

³ Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: “Ma’naviyat”. 2016. 2001, 127-bet



Biroq, ayrim kuchlar mafkuraviy maydonni nazorat qilish va o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilmoqda. “Terrorizm, neofashizm, irqchilik va ekstremizm kabi mafkuralar bunday harakatlarning salbiy ifodasidir”⁴

Hozirgi zamonda globallashuv jarayoni mafkuraviy maydonning yangi shakllarini keltirib chiqarmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan turli mafkuralar tezkorlik bilan tarqalmoqda. Biroq, insoniyat hayotida globallashuv ikki tomonlama ta’sir ko’rsatmoqda. Biri ijobiy jihatdan ya’ni umuminsoniy qadriyatlarning keng tarqalishi, inson huquqlari, tinchlik va barqarorlikka bo’lgan intilishning kuchayishi bo’lsa, boshqasi salbiy jihatdan, jumladan, G’arb va Sharq o’rtasidagi madaniy va mafkuraviy qarama-qarshiliklarning chuqurlashishi, terrorizm va ekstremizmning mafkuraviy asoslarining kuchayishidir.

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida terrorizm va ekstremizm muhim xatar sifatida ko’zga tashlanmoqda. Xususan, terrorchilik tashkilotlari kuchli moliyaviy resurslarga ega bo’lib, mafkuraviy ta’sirni oshirish uchun axborot vositalaridan keng foydalanmoqda. Shuningdek, bu mafkuralar nafaqat bir hududga, balki butun dunyo bo’ylab barqarorlikka tahdid solmoqda. Misol uchun, diniy ekstremizm ko’pincha milliy va mintaqaviy nizolarning asosiy sababi sifatida namoyon bo’ladi.

Bu harakatlar ko’pincha e’tiqod umumiyligi, etnik birlik va siyosiy manfaatlarni nazorat qilish orqali mafkuraviy hukmronlik o’rnatishga intilmoqda. Shu bilan birga, globallashuvning o’zi ham mafkuraviy jarayonlarni keskin o’zgartirmoqda. Endilikda g’oyaviy ta’sir ko’rsatish media, internet va boshqa zamonaviy texnologiyalar orqali amalga oshirilayotgani tufayli mafkuraviy kurashning yangi shakllari paydo bo’lmoqda.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash kerakki, globallashuv davrida dunyoning mafkuraviy manzarasi tobora murakkablashmoqda. Bu jarayonlar jamiyatlar oldiga yangi vazifalar qo’yadi: milliy qadriyatlarni saqlab qolish, g’oyaviy himoya tizimlarini kuchaytirish va

⁴ Aliyev R. Zamonaviy dunyo mafkuraviy qarama-qarshiliklar girdobida. Toshkent: “Fan va texnologiya”. 2020.89-bet.



yosh avlodni mafkuraviy immunitetga ega qilib tarbiyalash. Aks holda, global mafkura poligonlari millatlar mustaqilligiga tahdid solishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish" masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi. 2019-yil 19-yanvar.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Тошкент: "O'zbekiston", 2021. - 464 б. 274-bet
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat". 2016. 2001, 127-be
4. Aliyev R. Zamonaviy dunyo mafkuraviy qarama-qarshiliklar girdobida. Toshkent:"Fan va texnologiya". 2020.54-bet.
5. Omonov, Bahodir Nurillayevich. "MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA–MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4.21 (2024): 529-535.
6. Очилова, Гўзал Араловна. "Чучук Сув Танқислиги Муаммосининг Марказий Осиёга Хавфи. Омонов Баходир Нуриллаевич."
7. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения." Gospodarka i Innowacje. 44 (2024): 235-242.